



HALOL RIZQ TOPISH

A'zamov Adhamjon Axrorjon o'g'li
Qo'qon davlat pedagogika instituti
tarix fakulteti Milliy g'oya va ma'naviyat
asoslari huquq ta'lim yo'nalishi 201- guruh
talabasi

A'zamov Jasurbek

Qo'qon davlat pedagogika instituti Moliya ishlarini bo'yicha
prorektor falsafa fanlar doktori (PhD) taqrizi asosida

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10777772>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 27-fevral 2024 yil
Ma'qullandi: 29-fevral 2024 yil
Nashr qilindi: 04-mart 2024 yil

KEY WORDS

*Konstitutsiya, mehnat qilish
huquqi, halollik, halol mehnat
qilish, rizq, hadislarda mehnat*

ABSTRACT

Ushbu maqolada halol rizq topish maqsadida amalga oshirilish bo'lgan ishlarning ham dunyoviy ham diniy tarafdin yondoshish hamda qonuniy tarafdin mehnatga layoqatli kishilarga ko'maklashish haqida.

Insonlarni eng avvalo mehnat ulug'laydi. Mehnat qilish har bir insonning qanday harakterga ega ekanligini anglatadi. Hattoki islom dinida ham halol mehnat yuksak darajada ta'riflangan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham mehnatga alohida to'xtalib o'tilgan. Halol mehnat bilan hamma ham rizq topadi deb aytolmaymiz. Chunki rivojlanib borayotgan zamonda texnika, raqamli iqtisodiyot, kompyuter texnologiyalari shiddat bilan oldinlab ketyapti bu o'z navbatida ayrim insonlarning dangasa qilib qo'ymoqda. Shuning uchun ham halol rizq topish borasida insonlar chuqur o'ylashi lozim.

Mavzuning dolzarbligi: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42-moddasida " Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalanih huquqiga ega.

Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta'minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanadi.

Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularni ish haqini kamaytirish taqiqlanadi" deyiladi.

Bu normada eng avvalo inson qadri ulug'lanadi insonga e'tibor qaratilgan. Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki insonga mehnat qilishga hamma shart sharoitlar yaratilgan.

Shuningdek, Imom al-Buxoriyning " Al-Jome' as-sahih" asarining 14-bobida Oysha raziyallohu anho rivoyat qiladilar:" Abu Bakr Siddiq xalifa bo'lganlarida " Mening o'z kasbim borligini

qavmimoz yaxshi bilur. Men garchi musulmonlar ishlari bilan band bo'lsam ham, shu kasbim orqali oila tebrataman" - dedilar"

Oysha raziyallohu anho rivoyat qiladilar " Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: Mening sahobalarim o'z kasblari va mehnatlari bilan tirikchilik qilurlar"- deydilar. "

Abu Hurayra roziyallohu anhu rivoyat qiladilar: " Rasululloh sallallohu alayhi va sallam: " Bir quchoq o'tin terib, bozorga orqalab borib, sotib tirikchilik qilgan odam tilanchilik bilan qo'l cho'zib ko'rgan odamdan afzal" - dedilar."

Bu hadisdan ma'na va mazmun shuki, inson halol mehnat qilib halol rizq topishi lozim. Halollik insonni ham ko'rkamlashtiradi ham nomini ulug'laydi. Shu o'ringa xalqimizda qolgn maqol bor "Mehnat, mehnatning tagi rohat" bunda ham mehnat halollikka chorlaydi.

Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi 37-maqсад: "Har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o'qish imkoniyatini yaratish. Kasbga o'qitish ko'lamini 2 baravar oshirib, jami 1 million nafar ishsiz fuqaroni kasb-hunarlariga o'qitish va bu jarayonda nodavlat ta'lim muassasalarining ishtirokini 30 foizga yetkazish.

Kasbiy ta'lim bilan tizimli ravishda shug'ullanish masalalarini to'liq ravishda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ixtiyoriga o'tkazish.

Kasbga o'qitish ko'lamini 2 baravarga oshirish, jami 1 million nafar ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o'qitish.

Umumta'lim maktablarining kasb o'rganish istagidagi bitiruvchilarini davlat tomonidan kamida bir kasbni egallashiga ko'maklashuvchi tizimni joriy etish" qilib qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 43-moddasida "Davlat fuqarolarning bandligini ta'minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek kambag'allikni qisqartirish choralarini ko'radi.

Davlat fuqarolarning kasbiy tayyorgarligini va qayta tayyorlanishini tashkil etadi hamda rag'batlantiradi."

"O'z nonini halol mehnat bilan topadigan, xolis va ezgu ishlar bilan el-yurtga naf-yetkazadigan tiriklik mazmunini teran anglab, nafaqat bugungi hayot lazzatlari, balki oxirat haqida o'ylab yashaydigan insonlarga xos hayotiy qarashlar " deya birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ham halol rizqqa to'xtalib ketganlar.

Xulosa o'rnida aytganda halol mehnat halol rizq eng avvalo insonning o'z qo'lida uni harom bilan qo'lga kiritisa uning mazasi ham uzoqqa bormaydi lekin uni halol mehnat va poklik bilan qo'lga kiritisa uzoq yillar davomida foydalanadi. Shu o'rinda O'tkir Hoshimov bir jumlasini qo'shib ketmasam bo'lmaydi unda "Halol va harom" Ba'zilar "halol va harom" deganda " yeb-ichish mumkin bo'lgan va yeb-ichish mumkin bo'lmagan" narsani anglyadilar... yuzaki tushuncha! Aslida bu- "qilish mumkin bo'lgan va qilish mumkin bo'lmagan" amallar degani hamdir... Bilasiz: non eng tabarruk ne'mat. Biroq nopok yo'l bilan topilgan non ham harom" deya so'r yuritilgan. Halol rizq topish ham diniy ham dunyoviy tarafdin yuksaklarga ko'tariladi. Shuning uchun ham halol rizq bilan halollik bilan mehnat qilish shart.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. "Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi" <https://lex.uz/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yangi tahrirdagi 2023- yil 30-aprel 10-bet
3. АБУ АБДУЛЛОҲМУҲАММАД ИБН ИСМОИЛ АЛ-БУХОРИЙ.
2 АЛ-ЖОМИЪ АС-САҲИҲ(Ишонarli тўплам) ҚОМУСЛАР БОШ ТАҲРИРИЯТИ ТОШКЕНТ —
1997
14- bob 4-5- betlar
4. O'tkir Hoshimov " Daftar hoshiyasidagi bitiklar" G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent 2018
5. Islom Karimov " Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" Toshkent "Yangiyo'l poligraf servis" 2015

